

Sarvara G'OFUROVA,
Andijan State Institute of Foreign Languages
E-mail: shodyona2020@mail.ru
Tel: +998937847986

Based on the review of dots. M.A.Abdulyaliev

SCOPE OF INTERDISCIPLINARY APPLICATION OF "PURPOSE" AND ITS ROLE IN LINGUISTICS

Annotation

This article discusses the interdisciplinary scope of "purpose" and its role in linguistics. The origin of purpose in science and its use in language are analyzed by examples.

Key words: Purpose, subject, object, linguistics, empirical science, thinking, perception, anomalist.

СФЕРА МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПРИМЕНЕНИЯ «ЦЕЛЬ» И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается междисциплинарный объем понятия «цель» и его роль в лингвистике. На примерах анализируется происхождение цели в науке и ее употребление в языке.

Ключевые слова: Цель, субъект, объект, лингвистика, эмпирическая наука, мышление, восприятие, аномалисты.

“MAQSAD” NING FANLARARO QO’LLASH KO’LAMI VA UNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O’RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada “maqsad” ning fanlararo qo’llash ko’lami va uning tilshunoslikda tutgan o’rni muhokama qilinadi. Ilm-fanda maqsadning kelib chiqishi va tilda uning qo’llanilishi misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maqsad, sub’yekt, obyekt, tilshunoslik, empirik fan, tafakkur, idrok qilish, anomalistlar.

Tilshunoslik inson tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kirib, umuman, tabiatshunoslik, falsala fanlari bilan juda yaqin aloqada bo’ladi. Chunki, inson faoliyatining barcha ko’rinishlarida, jumladan, idrok qilish va o’zaro muloqot jarayonlarida til asosiy vazifani bajaradi. Bundan tashqari, tilshunoslik ham fanlar sistemasida boshqa bir qancha fanlar bilan uzbek aloqada bo’ladi. Bu aloqalarsiz tilshunoslikning o’rganish obyekti bo’lgan tilning o’ziga xos tomonlarini ochib berish mumkin emas.

Masalan: Maqsad (falsafada) — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o’ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo’lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta’riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo’lsa, maqsad faoliyat yo’nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga sub’yektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta’sir o’tkazadi. Maqsadning real va noreal, qisqa muddatli va uzoq muddatga mo’ljallangan, asosiy va ikkinchi darajali va boshqa turlari bor. Real Maqsadlar sub’yektning imkoniyatlari, atrof muhitning holati va obyektiv qonuniyatlarini hisobga olsa, noreal maqsadlar faqtgina sub’yektning orzu-istiklalini ifodalaydi, atrofdagi vaziyatni hisobga olmaydi[4].

Til insonlar o’tasidagi aloqa vositasi bo’lishi, jamiyatdagи jarayonlar to’g’risida xabar berishi bilan birga tinglovchiga ma’lum darajada ta’sir ko’rsatish xususiyatiga ham ega.

O’zbek tilshunosligi tarixini o’rganar ekanmiz, maqsad ma’nosи 1940-2000-yillar oralig’ida nashr etilgan adabiyotlarda, (darslik, o’quv qo’llanma, risolalar va ilmiy maqolalar) qo’llanilgan. Mifologiya va ibtidoiy kosmologiya asosan tarixni xudolar maqsadlarining izchil amalga oshishi sifatida tushuntirishga uringan.

Falsafa va tilshunoslik so’nggi asrda motiv va dizayniga alohida etibor qaratdi. Insoniy maqsadda erishiladigan natija avval ongdа tasvirlanadi, so’ngra mutafakkir o’z oldiga qo’yan maqsadini ro’yobga chiqarish uchun bir qator harakatlarni amalga oshiradi. Maqsadning mohiyatini to’liq tushunishga to’sqinlik qiluvchi omillardan biri bu turli fanlar o’tasidagi muvofigqlashtirishning yo’qligi.

Biologlar, asosan, o’tgan avlod psixologiyasidan kelib chiqqan holda, inson ixtiyorining talqinini taxmin qilsa, psixologlar hali ham o’rta asr falsafasi bizga meros qilib qoldirgan “iroda erkinligi” va “mas’uliyat” haqidagi ilmiy asoslanmagan tushunchalarga urg’u berishadi.

Bizning fikrimizcha, maqsadni chuqur tahlil qilish bugungi kunda empirik fanning asosiy ehtiyojlaridan biridir. Ilm-fanning har bir sohasi bu tushunchaga aniqlik kiritishni talab qiladi.

Biz bilamizki, til boshqa narsa va hodisalar singari o’zgaruvchandir. Shunday ekan, yillar mobaynida tillarda qanday o’zgarish sodir bo’lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtayi nazaridan o’rganish qiyindir. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo’lishidan avvalgi holati biz uchun qorong’idir.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg’in bahs olib borganlar. Bu guruh olimlar anomalistlar deb atalgan.

Umuman tilning kelib chiqishi masalasini tahlil qilar ekanmiz, bundan bir necha yuz ming yil avval paydo bo’lgan tillarning fonetik tizimi, so’z boyligi, grammatikasi va boshqa muayyan xususiyatlaridan qat’i nazar, eng avvalo, tilning kelib chiqishidagi shart – sharoitlarni tadqiq qilish, ya’ni insonlar qanday sharoitda so’zlay boshlaganliklarini o’rganish va bu masalaga xulosha chiqarishimiz lozim.

Ma’lumki, umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o’rganidan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo’shishga harakat qildi.

V. fon Gumboldt ta’kidlashicha, tilning har doim, rivojlanib o’zgarib turishi uning eng asosiy xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi bu tilning ana shu xususiyatini o’rganishdan iboratdir. Yuqorida ko’rsatib o’tilgan “maqsad”ning ifodalananish masalasi tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir.

Garchi V. Gumboldtning nazariyasi idealistik falsafaga asoslangan bo’lsa ham, uning ilmiy faoliyati, ayniqsa til bilan nutq antinomiyasi xususidagi ta’limoti tilshunoslik fanining taraqqiyoti uchun juda katta hissa bo’ldi. V. Gumboldtning til

haqidagi falsafiy nazariyasi, o'zidan keyingi tilshunoslik fanining takomillashuvida, turli ilmiy maktablar va oqimlarning shakllanishida asosiy omil bo'lgan.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mayjud bo'ladi. Ongingizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ladi. Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog'liqdir. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlalar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish obyehti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'yektidir [5.15].

O'zbek tilining izohli lug'atiда maqsad so'ziga niyat, yuqori tilak, intilish deb izoh berilgan.

Erishish esa, amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan narsa, murod, muddaodir.

Ko'pincha maqsad so'zi maqsad qilib qo'yemoq, maqsadga etmoq, maqsadga erishmoq kabi fe'llar bilan birga ishlatalinadi [3].

Masalan: Xoljonbekaning shaharga tushishidan maqsadi Shernazarboyni bir ko'rish edi. (J. Sharipov, Xorazm).

Hasanali Otobek bilan birga choy ichish maqsadida, ertalab Oybodoqning damlagan choyiga bormay, Otabekning uyg'onishini kutibyurdi (A. Qodiriy, O'tgan kunlar).

Azim Xojiyev maqsad so'ziga niyat, muddao, murod so'zlarini sinonim qilib keltirgan bo'lib, u biror narsaga erishish, etishish istak-ixtiyori ma'nosida qo'llaniladi [1].

Murod so'zi esa asosan "etmoq", "hosil bo'lmoq" fe'llari bilan qo'llanadi.

Masalan: Uning maqsadi Gulnor qutisida qanday narsalar bor, dadasi yashirinchha qanday qimmatbaho buyumlar keltilganligini bilish edi (Oybek).

Men sizlarning niyatningizni bilaman sizlar ishni tezroq boshlamoqchisizlar ("Qizil O'zbekiston").

... U bu ish Olaxo'janing fikri bilan bo'lganini anglaydi. Olaxo'ja uning eshigiga yordam so'rab keladigan bir ahvolga solib qo'yomoqchi ekan. Biroq u muddaosiga etolmaydi. Abdurasul yana qaytib uning qo'liga tushmaydi (P. Tursun).

Botir yorim, bilaman, siz qayg'u daryosiga mendan chuqurroq botgandirsiz. Endi yolg'iz murodim – sizni bir ko'rmoq, siz bilan ikki og'iz so'zlashmoqdur (Oybek).

Maqsad ma'nosi, aynan boshqa so'z turkumlaridan o'sib chiqqan ravish so'z turkumiga kiradi. Maqsad ravishlari ish-harakatning qay maqsadda sodir bo'layotganini yoki nima uchun yuzaga kelayotganini bildiradi: atay, ataylab, atayin, qasddan, jo'rttaga, azza-bazza kabi.

Masalan: Siz rahbarga shunday ko'rinish uchun jo'rttaga shunday qilsangiz kerak. Biz xabar olgani keldik, sizdan atayin (P.Mo'min).

Ko'makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlardan bildirish uchun qo'llanadigan so'z turkumidir. Sintaktik tomondan ko'makchilar quyidagi gruppalarga bo'linadi:

1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar;

2) jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar;

3) chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar.

Vosita, sabab, maqsad, qiyos-o'xshatish munosabatlari ifodalash uchun qo'llaniladigan bilan, uchun, kabi, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqali, sababli ko'makchilar bosh kelishikdagi so'zni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi.

Yo'nalish, sabab, maqsad munosabatlari ifodalash uchun qo'llanadigan ko'ra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay ko'makchilar jo'nalish kelishigidagi so'zni talab qiladi. Chog'ishtirish, qiyos, ajralish munosabatlari ifodalash uchun qo'llanadigan so'ng, boshqa, keyin, tashqari, beri, bo'lak ko'makchilar chiqish kelishigidagi so'zni talab qiladi [2.20].

Masalan: Bir guruh o'zbek olimlari amerikalik hamkasbleri oldiga juda zarur ish bilan, ya'ni shu sohada olib borayotgan diqqatga sazovor ilmiy ishlar bilan tanishish uchun ketdilar («Jurnaldan»).

Sizga yordam berish uchun keldimda, aylanay. (Oybek).

O'quvchi yaxshi oqishiga qaramay, timimsiz o'z ustida ishlar edi. U bundan keyin faqat a'lo bahoga o'qishga intilardi. (S. Abdulla).

Traktorlar yangi texnika va ilg'or texnologiya bilan tanishdilar, bundan tashqari ularni amalda qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar oldilar (P.Mo'min).

Demak, kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmasanidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydilar. Til fikr ifodalashning muhim vositasidir hamda, tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Shu jarayonda kishilar o'z maqsadlarini ifodalashda, ish-harakatning qay maqsadda sodir bo'layotganini yoki nima uchun yuzaga kelayotganini anglaydi.

ADABIYOTLAR

1. Azim Xojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi" 1974. 139 bet.
2. Mamaraximov Sirojiddin. O'zbek tilida maqsad ma'nosi so'zlar orqali ifodalanishi. Journal of Universal Science Research 2023. 20 bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2- jild 2006. 570 bet.
4. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2001. - 345 bet.
5. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent -2007 -15 bet.